

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**FAYZIYEVA SITORA FAXRIDDINOVNA**

**BUZOQLAR TOKSIK DISPEPSIYASINING ETIOPATOGENEZI VA  
PROFILAKTIKASI**

**16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по ветеринарным наукам

Content of the abstract of a doctoral dissertation (PhD)  
on veterinary sciences

Fay  
Buz

Фай  
Эти

Fay  
Etiol

E'lo  
Спис  
List

a - 14347

Fayziyeva Sitora  
Faxriddinoma  
Buxoralar toksik  
dispersiyasining  
etiopatogenezi va  
profilaktikasi

ktikasi..... 3

iyu teyat..... 23

es..... 45

..... 49

2025

—

+

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---


**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**FAYZIYEVA SITORA FAXRIDDINOVNA**

**BUZOQLAR TOKSIK DISPEPSIYASINING ETIOPATOGENEZI VA  
PROFILAKTIKASI**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**



Samarqand – 2025

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/V59 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.ssu.uz](http://www.ssu.uz)) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Norboyev Qurbon  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Dilmurodov Nasriddin Babakulovich  
veterinariya fanlari doktori, professor  
Mamatov Shavkat Sodiqovich  
veterinariya fanlari nomzodi


**Yetakchi tashkilot:** Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti


Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «08» 11 soat «10<sup>00</sup>» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; e-mail: [ssuv@edu.uz](mailto:ssuv@edu.uz))


Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14347 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; Fax: +998662347686).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «27» 10 kuni tarqatildi.  
(2025 yil «27» 10 dagi № 05 - raqamli reestr bayonnomasi).



  
X.B. Yunusov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
biol.f.d., professor

  
K.X. Urakov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
vet.f.f.d.

  
B. Bakirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar  
raisi, vet.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo aholisining ekologik toza chorvachilik mahsulotlari (sut, go'sht va go'sht mahsulotlari)ga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Chorvachilikning qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirish, sohada innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali hayvonlar mahsuldorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, mahsuldor sigirlardan sog'lom buzoq olish kabi muhim omillarga bog'liq. Qoramolchilikda rentabellikni oshirishga yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklar katta to'siqlardan hisoblanadi. Yosh buzoqlar orasida yuqumsiz xarakterdagi kasalliklar, xususan dispepsiya bu o'rinda muhim o'rinni egallaydi. «Buzoqlarning yuqumsiz patologiyalari ulushi 78,6 %ga to'g'ri kelib, shundan dispepsiya va oshqozon ichak kasalliklari bilan kasallanish 53,6 %ni tashkil etadi<sup>1</sup>». Dispepsiya buzoqlarning o'sishdan qolishi, kelgusida podani to'ldirishga yaroqsiz bo'lishi yoki kasalliklarga tez beriluvchan bo'lib qolish bilan xarakterlanib qoramolchilikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Kasallikni o'z vaqtida aniqlash, kasallikning rivojlanish mexanizmini inobatga olgan holda davolash va oldini olishning yangi zamonaviy usullarini yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan sanaladi.

Dunyoning ko'pgina qoramolchilik rivojlangan davlatlarida ham buzoqlar dispepsiyasidan katta iqtisodiy zarar ko'rish holatlari qayd etiladi. «Buzoqlar dispepsiyasi organizmda turli fiziologik jarayonlarning izdan chiqishiga sabab bo'lishi bilan birgalikda, suvsizlanish, kislota-ishqor muvozanati, suv tuz balansining buzilishi, immunitetning pasayishi, disbakterioz kabi simptomlar bilan xarakterlanishi ushbu patologiyaning og'ir kechishidan dalolat beradi<sup>2</sup>». Buzoqlarning o'sishdan qolishi, ikkilamchi kasalliklarga tez chalinishi kuzatilib, diareya oqibatida nobud bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun buzoqlar dispepsiyasini aniqlashda bo'g'oz sigirlarni saqlash va oziqlantirilish darajasi, organizmining klinik-biokimyoviy statusini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish muhim hisoblanib, bu o'z navbatida sigirlardan sog'lom, kasalliklarga chidamli buzoqlar olishga, qoramol bosh sonini ko'paytirishga katta zamin yaratadi.

Respublikamizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ehtiyojning yuqori ekanligi, yuqori mahsuldor qoramollar bosh sonini yanada ko'paytirish, ulardan olinadigan naslini kasalliklardan asrash bo'yicha olib boriladigan chora-tadbirlarni mintazam ravishda rejalni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Mahsuldor sigirlarni chetdan keltirib parvarishlash natijasida zotli sigirlar bosh soni ko'payib, ulardan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda. Ammo zotli sigirlardan tug'ilayotgan buzoqlarda dispepsiya bilan kasallanish ko'p qayd etilmoqda. Shundan kelib chiqib, buzoqlarda dispepsiyaning sabablarini aniqlash, klinik belgilari va kechish mexanizmini o'rganish, diagnostika usullari hamda davolash va oldini olishning yuqori samarador usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> Блажнова М.В. Эффективность применения вермикюлита сухостойным коровам и прибиотика биоспорина для лечения и профилактики диспепсии телят. Дис. ... канд. вет. наук: Екатеринбург, 2004. 141 с.

<sup>2</sup> Батраков А.Я. Племяшев К.В., Виденин В.Н. Яшин А.В. Профилактика и лечение диспепсии новорожденных телят. Учебное пособие для вузов. СПб. Квадро. 2021. -56 с.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi<sup>3</sup>, 2019 yil 28- martdagi PF-5696- son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 29- yanvardagi PQ-4576- sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 8- fevraldagi PQ-121- son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 31- martdagi PQ-187- son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida», 2025 yil 30- yanvardagi PQ-34- son «Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustivor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Buzoqlarda dispepsiyaning etiologiyasi, kechish xususiyatlari, patogenezi, klinik belgilarini o'rganish va diagnostika qilish, davolash hamda oldini olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy mualliflardan xususan, B.N.Anoxin, D.A.Akimov, I.S.Voronin, P.P.Golshenkov, I.K.Gorbov, G.V.Zlobin, V.V.Egorov, G.P.Efimova, I.P.Kondrahin, A.V.Korobov, V.V.Mityushin, I.I.Reznik, V.T.Samoxin, V.H.Simonovich, B.S.Siryakin, P.H.Sisyagin, M.Slozenkina, M.I.Surkova, O.V.Tatarчук, N.V.Pilaeva, S.I.Plyashenko, V.P.Urban, O.Yurina, A.I.Yatusevich, vatanimiz olimlaridan V.Bakirov, I.D.Burluskiy, Sh.S.Mamatov, Q.N.Norboyev, N.B.Ro'ziqulov, A.K.Sitdikov, X.B.Yunusov, V.A.Elmurodov, V.M.Eshburiyev va boshqalar tomonidan o'tkazilgan. Ammo, Respublikamizning qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida chetdan keltirilgan zotli qoramollardan tug'ilgan buzoqlarda toksik dispepsiyaning etiopatogenezi, simptom va sindromlari, kasallikni kechish xususiyatlari, davolash va oldini usullari to'liq o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida "Qoramollarda uchraydigan barcha yuqumsiz, yuqumli va parazitlar kasalliklarni oldini olish va davolash xizmatlarini ko'rsatish" bo'yicha qoramolchilik fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan shartnoma (Shartnoma №5. 14.11.2023 y.) asosida bajarilgan.

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni.

**Tadqiqotning maqsadi** buzoqlarda toksik dispepsiyaning tarqalishi va etiologiyasini o'rganish, kasallikka tashxis qo'yishda ichak mikroflorasining nisbatini aniqlash, davolash hamda profilaktik usullarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

buzoqlarda toksik dispepsiyaning tarqalish darajasi va xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini aniqlash;

buzoqlar toksik dispepsiyaning antenatal sabablarini aniqlash uchun bo'g'oz sigirlarning saqlash va oziqlantirish sharoitlarini tahlili;

buzoqlar toksik dispepsiyaning kechish xususiyatlari va etiologiyasini o'rganish asosida ertachi diagnostika qilish;

buzoqlar toksik dispepsiya oshqozon-ichak mikroflorasining holatini baholash;

buzoqlarda toksik dispepsiyaning simptom va sindromlari hamda patologoanatomik o'zgarishlarini o'rganish;

buzoqlar toksik dispepsiya kuzatiladigan gematologik o'zgarishlarni aniqlash;

buzoqlarda toksik dispepsiyaning davolash va profilaktika usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida golshtin, shved zotli sog'indan chiqarilgan sigirlar va ulardan tug'ilgan buzoqlar, sigirlardan olingan qon va uviz suti hamda buzoqlarning qon va tezak namunalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qoramolchilik xo'jaliklarida sog'indan chiqarilgan bo'g'oz sigirlar va dispepsiya bo'lgan buzoqlarning klinik, gematologik ko'rsatkichlari, toksik dispepsiya patologoanatomik o'zgarishlar, Regidratsion tuz va Ringer eritmasi, uviz suti, Maxlac/DW probiotigi, sun'iy oshqozon shirasi (1 g pepsin, 1,5 g HCl, 100 ml distillangan suv) va LPP-1, Trivit (oral) preparatlari, vitaminlashtirilgan baliq moyi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda klinik, morfologik, biokimyoviy, refraktometrik, mikroskopik, patologoanatomik, mikrobiologik, oziqa namunalari zootexnikaviy tahlil qilish, olingan raqamli ma'lumotlarning statistik va biometrik tahlili usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

buzoqlarning toksik dispepsiya bilan kasallanishi 7-8 oylik bo'g'ozlikdagi sigirlar ratsionlarining fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi hamda oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibligi, uvuz sutining kislotalik darajasini pasayishi ( $24,0 \pm 2,6^{\circ}T$ ), umumiy oqsil miqdorining kamayishi ( $21,4 \pm 2,0\%$ ) bilan bog'liqligi tadqiqotlarda isbotlangan;

buzoqlarning toksik dispepsiya disbakterioz, ichaklarda shartli patogen mikroorganizmlar (*escherichia coli*, stafilokokk, streptokokk) sonining  $4.2 \pm 0.2 \times 10^8$  KOEgacha ko'payishi bilan kechishi aniqlangan;

buzoqlar toksik dispepsiyaning ertachi va differentsial tashxislashda "RAPID TEST KIT" COMBO TESTi qo'llanilgan;

buzoqlarning toksik dispepsiya o'tkir kataral-gemorragik gastroenterokolit, shirdon bo'shlig'ida kazein-bezoarlar, taloq atrofiyasi, parenximatov organlar va

miokard to'qimalarida distrofik o'zgarishlar kabi patologoanatomik o'zgarishlar bilan kechishi ilmiy asoslangan;

dispepsiyani profilaktika qilishda buzoqlar tug'ilganidan 50-60 daqiqa o'tgach 750 ml uvuz sutiga + 250 ml fiziologik eritma qo'shib (38-39°C) bir kunda 4 marta, vitaminlashtirilgan baliq moyi uvuz sutiga qo'shib 1- va 2- kunlari 5 mldan, 3-, 4- kunlari 10 ml ichirish, MaxLac/DW probiotigidan tug'ilgandan 2- kundan boshlab 1 g + 10 litr qaynatib sovutilgan suvda eritilib, har bir buzoqqa 800 ml dan kuniga 4 mahal 4 kun davomida ichirishga asoslangan usul ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobasiya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, olingan raqamli ma'lumotlar biometrik ishlovdan o'tkazilganligi, ishda olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, hayvonlar sonining yetarli ekanligi, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati buzoqlar toksik dispepsiyasining asosiy sabablari sigirlarning bo'g'ozlik davrida to'yimli moddalarga nisbatan ehtiyojlarining to'liq qondirilmasligi, ular organizmida moddalar almashinuvi darajasining pasayishi, uvuz suti sifatining pasayishi ekanligining aniqlanganligi, buzoqlar dispepsiyasining patologoanatomik o'zgarishlari, ichaklarda disbakteriozning paydo bo'lishi va kasallikni oldini olishning samarali usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, buzoqlar toksik dispepsiyasi organizmning umumiy holsizlanishi, ich ketishi, gipodinamiya, harakat koordinatsiyasining buzilishi kabi klinik belgilar bilan kechishi aniqlanganligi, kasallikni differensial diagnostika qilishda unga xos bo'lgan patanatomik o'zgarishlarning belgilanganligi hamda toksik dispepsiyani davolashda ularni 6 soat davomida och qoldirib har soatda 10 ml/kg (300 ml) dan Regidratsion tuz – LP eritmasi, MaxLac/DW probiotigi 1 g 4 mahal, 4 kun suvga aralashtirib berish, sun'iy oshqozon shirasi (1 g pepsin + 1.5 g HCl + 100 ml distillangan suv) 40 ml + 40 ml fiziologik eritma uvuz sutini berishdan 15 minut oldin berish, uvuz sutini 1/3 qismi (333 ml) + 333 ml iliq fiziologik eritmaga qo'shib 1 kunda 5 mahal berish, Ringer eritmasidan 250 ml + 5 % askorbinka 5 ml + vitamin B<sub>12</sub> 1 ml (250 mkg) 2 mahaldan 3 kun vena qon tomiriga infuziya qilish usuli ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buzoqlar toksik dispepsiyasining etiopatogenezi va profilaktikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

“Bo'g'oz sigirlarni oziqlantirish va buzoqlarni parvarishlash bo'yicha tavsiyanoma” tayyorlangan va tasdiqlangan hamda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining qoramolchilik xo'jaliklarida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 2 iyundagi 02/23-388-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'llash natijasida bo'g'oz sigirlarda modda

almashinuvi buzilishlarini oldini olish va ulardan tug'ilgan buzoqlarning dispepsiyaga chidamli bo'lishiga erishilgan;

buzoqlar dispepsiyasini profilaktika qilishda ularga sifatli uvuz sutini berish (750 ml uvuz sutiga + 250 ml fiziologik eritma qo'shib kuniga 4 marta ichirish), 1 millilitrida 2000 XB vitamin A, 200 XB vitamin D saqlovchi Vitaminlashtirilgan baliq moyi uvuz sutiga qo'shib 5-10 ml, MaxLac/DW probiotigidan tug'ildandan 2-kundan boshlab 1 g + 10 l qaynatib sovutilgan suvda eritilib, har bir buzoqqa 800 ml dan 4 mahal har 6 soatda 4 kun davomida ichirishga asoslangan usul ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 2 iyundagi 02/23-388-son ma'lumotnomasi). Natijada buzoqlar dispepsiyasini oldini olish va ularni sog'lom o'stirish imkoniyati yaratilgan;

buzoqlarda dispepsiyani davolashning 6 soat davomida och qoldirish, 10 ml/kg (300 ml) Regidratsion tuz-LP eritmasi, MaxLac/DW probiotigi 1 g 4 mahal, 4 kun suvga aralastirib berish, sun'iy oshqozon shirasi 40 ml + 40 ml fiziologik eritma uvuz sutini berishdan 15 minut oldin berish, uvuz sutini 1/3 qismi (333 ml) + 333 ml iliq fiziologik eritmaga qo'shib 1 kunda 5 mahal berish, Ringer eritmasidan 250 ml + 5 % askorbinka 5 ml + vitamin B<sub>12</sub> 1 ml (250 mkg) 2 mahaldan 3 kun vena qon tomiriga infuziya qilishga asoslangan usuli ishlab chiqarishga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 2 iyundagi 02/23-388-son ma'lumotnomasi). Bunda buzoqlar dispepsiyasini davolash samaradorligi yuqori bo'lib, sarflangan bir so'm xarajatlar hisobiga 6,46 so'm iqtisodiy samara olishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishi tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola hamda 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etdi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning "Kirish" qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarining ishonchliligi, ularning joriy etilishi va aprobsiyasi, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **"Adabiyot sharhi"** deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismdan iborat: yosh hayvonlar hazm traktining fiziologik xususiyatlari va olimlar

tadqiqotlari, buzoqlar dispepsiyasining etiopatogenezi haqidagi ilmiy manbalar, kasallikning simptomlari, tashxisi va qiyosiy tashxis, dispepsiyani davolash va guruhli profilaktikasi yozilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlar obyekti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarning ob’yekti va usullari bayon etilgan. Tadqiqot ishlari 2021–2024 yillarda Samarqand viloyatining Toyloq tuma-nidagi “Siyob Shavkat Orzu”, Pastdarg‘om tumanidagi «Jura» va K.Eldor fermer xo‘jaliklari hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi “Palandara Chorva” fermer xo‘jaligida olib borilgan.

Ratsiondagi xom kletchatka Keldal usulida, kalsiy V.P.Vichev va L.V.Karakashov, fosfor esa V.F.Koromislov va L.A.Kudryavtseva usuli bilan aniqlandi. Karotin P.X.Popondupolo usuli asosida belgilandi. Kalsiy-fosfor nisbatlari va sigir organizmning to‘yimli moddalarga ta‘minlanganlik darajasi zootexnik tahlil orqali aniqlanib, me‘yorlar bilan solishtirildi.

Oziqalar tarkibi va hazmlanuvchi protein miqdori “O‘simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish” kafedrasining laboratoriyasida “Glazer” apparatida aniqlanib, natijalar belgilangan me‘yorlar bilan taqqoslandi.

Qondagi gemoglobin Sianmedgemogloblin usulida, glyukoza Contour plus glyukometrida, umumiy oqsil esa RNC portativ refraktometri yordamida aniqlandi.


Uviz suti kislotaligi (Terner), yog‘liligi (Gerber), oqsil (Kyeldal), sut qandi (Bertran) usullarida va quruq modda esa quritish usuli orqali o‘lchandi.

Sigirlar ratsioni oziq birligi, hazmlanuvchi protein, qand, karotin, kalsiy va fosfor ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholandi. Ularning tana harorati, nafas va puls soni, oshqozon oldi bo‘limlari harakati, ishtaha, teri, shilliq pardalar, tishlar va dum umurtqalari holati kuzatildi. Shuningdek, buzoqlarning tana vazni, rivojlanishi, tashqi ta‘sirotlarga javobi va hazm tizimi holati nazorat qilindi.

Dissertatsiyaning **“Buzoqlar dispepsiyasining antenatal sabablari”** nomli uchinchi bobi to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda sigirlarni parvarishlash va oziqlantirish tahlil qilingan. Antenatal sabablarda alimantar omillarning rolini aniqlash maqsadida Samarqand viloyatining Toyloq, Pastdarg‘om va Kattaqo‘rg‘on tumanlaridagi fermer xo‘jaliklarida jami 296 bosh sog‘indan chiqarilgan sigirlarda dispanser tadqiqotlar olib borildi. Har bir xo‘jalikdan 10 tadan 7 oylik bo‘g‘oz, 4–5 yoshli golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlar tanlanib, ularning saqlash va oziqlantirish sharoitlari hamda tug‘ilgan buzoqlarda dispepsiya rivojlanishi kuzatildi. Tajribadagi sigirlar ratsioni oziq birligi, hazmlanuvchi protein, qand, karotin, kalsiy va anorganik fosfor miqdori bo‘yicha tahlil qilindi. Sigirlarning tana harorati, nafas va puls soni, kata qorinning harakati, ishtaha, teri holati va shilliq pardalar, kesuvchi tishlari, oxirgi dum umurtqalari shuningdek, buzoqlarning fiziologik rivojlanishi va hazm tizimi funksional holati tekshirib baholandi.

Ratsiondagi to‘yimli moddalar, vitaminlar va minerallar ta‘minot darajasi zootexnikaviy tahlil qilinib, me‘yorlar bilan solishtirildi (1-rasm). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, buzoqlarda dispepsiya rivojlanishiga sigirlar ratsionining oqsil va energiya jihatidan nomutanosibligi, biologik faol moddalarning yetishmasligi, kalsiy-fosfor nisbatining pastligi va moddalar almashinuvi buzilishi asosiy omillar sifatida baholandi.

Ushbu bobning “Sog’indan chiqarilgan sigirlarning klinik va gematologik ko’rsatkichlari” nomli 2-bandida buzoqlarda dispepsiyaning neonatal sabablarini aniqlash maqsadida 2023 yil yanvar–may oylarida Samarqand viloyatining Pastdarg’om tumanidagi «Jura» va K.Eldor, Toyloq tumanidagi “Siyob Shavkat Ozu” hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi “Palandara Chorva” fermer xo’jaliklarida sog’indan chiqarilgan 7 oylik bo’g’oz sigirlarda klinik va gematologik tadqiqotlar o’tkazildi. Har bir xo’jalikda o’xshash juftliklar tamoyiliga asosan 10 bosh sigir tanlab olindi.



### 1-rasm. Bo’g’oz sigirlar organizmini to’yimli moddalar bilan ta’minlanishi

Sigirlar bo’g’ozlikning 7-, 8- va 9-oylarida tekshirilib, tug’ish jarayonining kechishi, patologik o’zgarishlar hamda yangi tug’ilgan buzoqlarda oyoqqa turish, harakatlanish, emish refleksi va hazm jarayonlari (dispepsiya belgilari) tahlil qilindi.

Barcha fermer xo’jaliklarida sog’indan chiqarilgan sigirlarda moddalar almashinuvi buzilishi - kesuvchi tishlarning qimirlashi, ishtaha pasayishi, shilliq pardalar anemiyasi, teri elastikligining va teri qoplamasi yaltiroqligi pasayishi, harakatsizlik bilan namoyon bo’ldi (1-jadval). Bu holatlar homila rivojlanishini susaytirib, buzoqlarning gipotrofik tug’ilishi va dispepsiyasiga olib kelmoqda.

Bo’g’oz sigirlarning qon tahlili shuni ko’rsatdiki, bo’g’ozlikning ortishi bilan ularning qonidagi gemoglobin, glyukoza, umumiy oqsil va karotin miqdori kamayishi, AsAT va AIAT fermentlari faolligi ortishi kuzatildi. Bu esa modda almashinuvi buzilishi va jigar faoliyatining pasayganligini ko’rsatadi. Ushbu buzilishlar homilaning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatib, buzoqlarning gipotrofik tug’ilishi va dispepsiyasiga sabab bo’ladi (2-jadval).

Bobning uchinchi bo’limida “Yangi tug’ilgan buzoqlarda hazm traktining mikroby peyzaji” o’rganilgan. Ichak mikroflorasi immunitetda muhim rol o’ynaydi: U orga-nizmda himoya, fermentativ, vitamin sintezi, mikroelementlar almashinuvini ta’min-laydi. Dispepsiya bilan kasallangan va sog’lom buzoqlar ichak

mikroflorasini taqqoslash uchun tajriba Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi "Akbarshoh Shavkat" fermer xo'jaligida, 2-8 kunlik "Qizil eston" zotli buzoqlarda o'tkazildi. Juftliklar tamoyiliga asosan 3 boshdan iborat 3 guruh tuzildi: 1-guruh – sog'lom buzoqlar (nazo-rat); 2-guruh–dispepsiya bo'lgan, lekin davolanmagan; 3-guruh – dispepsiyabo'lgan, antibiotik bilan davolanayotgan buzoqlar. Davolashda Makrolan-200 (1 ml/20 kg, kuniga 2 mahal, m/o) va regidratsion tuz eritmasi (har soatda 10 ml/kg) qo'llandi. Tezak namunalari har guruhdan sanitariya qoidalariga amal qilgan holda olindi. 1-guruh sog'lom buzoqlarining ichagida asosan enterobakteriyalar, enterokoklar va boshqa aerob mikroorganizmlar aniqlandi. 2-guruhdan davolashdan oldin, 3-guruhdan esa davolashdan keyin (diareya belgilari yo'qolgach) namunalari olindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, barcha guruhlardagi buzoqlarning tezak namunalari salmonella va ko'k yiring tayoqchalari aniqlanmadi. Aksincha, barcha namunalarda patogen bo'lmagan *Escherichia coli* shtammlari mavjudligi kuzatildi.

1-guruh (sog'lom buzoqlar)da *E.coli* miqdori 1 g tezakda  $1.2 \pm 0.6 \times 10^8$  KOE ni tashkil etdi. 2-guruh (antibiotikoterapiya qilinmagan va dispepsiya bo'lgan buzoqlar)da bu ko'rsatkich  $4.2 \pm 0.2 \times 10^8$  KOE bo'lib, *E.coli* sonining ortishi ichak mikroflorasidagi disbalans va oziqlanish buzilishi bilan izohlanadi. Bu guruhda ichak muhitining pH ko'rsatkichi  $6.2 \pm 0.24$  ga o'zgarib, disbakterioz rivojlanishiga sharoit yaratgan. Bir buzoqda esa patogen shtamm aniqlanib, dispepsiyaning bakterial etiologiyasini ko'rsatdi. 3-guruh (antibiotik bilan davolanayotgan dispepsiya bo'lgan buzoqlar)da *E.coli* miqdori  $1.6 \pm 0.7 \times 10^8$  KOEga tushdi. Bu antibiotikning ichak mikroflorasiga bakteriostatik ta'siri bilan bog'liq.

Sog'lom buzoqlardan olingan tezak namunalari ozuqa muhitlariga ekilganda streptokokk stafilokokklarning o'sishi aniqlanmadi. Biroq, antibiotik terapiyasi qilinmagan va dispepsiya bilan kasallangan buzoqlardan olingan tezak namunalari streptokokk, stafilokokklarning barqaror koloniyalari o'sishi qayd etildi. Ushbu holat yangi tug'ilgan buzoqlarning oziqlantirish va parvarishlash shartlarining buzilishi natijasida ichak mikroflorasining disbiozi rivojlanishini ko'rsatadi. Antibiotik bilan davolangan guruhda streptokokk, stafilokokk koloniyalarining o'sishi sezilarli darajada kamaygan yoki umuman kuzatilmagan, bu esa antibiotiklarning bakteriostatik ta'siri bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sog'lom va dispepsiya bilan kasallangan buzoqlarning ichak mikroflorasini tarkibi farq qiladi. Barcha guruhlardagi buzoqlar tezagina *Escherichia coli*ning patogen bo'lmagan shtammlari aniqlangan. Sog'lom buzoqlarda stafilokokk va streptokokklar aniqlanmagan bo'lsa, dispepsiya bilan kasallangan buzoqlarda ushbu bakteriyalar ko'payishi bilan disbakterioz rivojlanishi kuzatilgan. Buzoqlarda dispepsiyani davolashda "Makrolan 200" preparatining 2-kunidan boshlab patogen mikroorganizmlar soni sezilarli darajada kamaygan.

Bobning to'rtinchi bo'limida buzoqlarda dispepsiyaning patologoanatomik o'zgarishlari yoritilgan. Kasallik oshqozon-ichak tizimining funksional yetishmovchiligi, yosh hayvonlarni noto'g'ri parvarishlash, sifatsiz sut berilishi hamda oziqlantirish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq. Dispepsiyaning yengil shakli hazm jarayonining qisqa muddatli buzilishi bilan tavsiflanib, 1-3 kun ichida sog'ayish bilan yakunlanadi. Toksik dispepsiya esa fermentopatiya, disbioz,

peristaltika oshishi, suv-elektrolit va kislota-ishqor muvozanatining buzilishi bilan kechib, organizmning umumiy intoksikatsiyasi va degeneratsiyasiga olib keladi. Kasallik odatda 2-3 sutkada davom etib, o'lim bilan yakunlanishi mumkin [70; 39-40].

Ko'pchilik hollarda dispepsiya kolibakterioz va salmonellyoz kabi enteropatogen infeksiyalar bilan birga uchraydi. Shu sababli, patologoanatomik tekshiruvlarda ichakning ingichka va yo'g'on bo'limlari, shirdon, yurak, buyrak, jigar va taloq o'rganilgan.

Toksik dispepsiya bilan kasallangan 2 buzoqning ichki organlari Samarqand viloyatidagi "Akbarshoh Shavkat" fermer xo'jaligidan olinib, gistologik tahlil uchun formalin 10% eritmasida fiksatsiyalandi. Mikrotom kesmalari gemotoksilin-eozin bilan bo'yali, mikroskopda o'rganildi. Anamnezga ko'ra, buzoqlarda umumiy holsizlik, kuchli ich ketishi, och sarg'ish, shilimshiq va qon aralash najas, past tana harorati (35-36,5°C), ichak peristaltikasining oshishi, oliguriya, taxikardiya, pulsning ipsimonligi va yurak tonlarining zaiflashuvi qayd etilgan. O'lim kasallik belgilari paydo bo'lganidan keyin 3-4 kun ichida sodir bo'lgan.

Gavdalar tashqi tekshiruvda anus atrofida to'q sariq najas, anus shilliq qavatining to'q qizil rangda ekanligi aniqlangan. Oshqozon-ichak tizimida o'tkir kataral yallig'lanish, parenximatоз organlarda distrofik-nekrobiotik o'zgarishlar va organizmning kuchli suvsizlanishi aniqlandi.

Patologoanatomik tekshiruvlar natijasida buzoqlarning 58,3 %ida o'tkir kataral gastroenterit, 41,6 %ida kataral va kataral-gemorragik yallig'lanishlar aniqlanib, 50 % holatda shirdon devorining kengayishi va ingichkalashishi, ichaklarda esa shilliq qavat qalinlashuvi, giperemiya, petexial qon quyulishlar qayd etildi. Gistologik tekshiruvlar asosida ichak va shirdonda deskvamatik-seroz katar, nekrobioz, venoz giperemiya va eritrostaz aniqlandi. Mezenterial limfa tugunlari, jigar, buyrak, oshqozon osti bezi va yurakda o'tkir seroz shish, degenerativ o'zgarishlar, parenximatоз distrofiyalar mavjud bo'lib, taloqda atrofik jarayonlar, timusda esa involyutsiya belgilari kuzatildi. O'lim sababi ko'pincha asfiksiya, o'pka va bosh miya shishi, miokard va nafas mushaklari falaji bilan bog'liq edi. Rota- va koronaviruslar, kolibakterioz, salmonellyoz, enterotoksemiya differensial tashxisda inobatga olindi. O'lgan buzoqlarda dispepsiyaning asosiy patomorfologik belgilari kataral-gemorragik gastroenterokolit, kazein-bezoarlar, umumiy venoz giperemiya, parenximatоз organlar va miokardda degenerativ-yallig'lanish o'zgarishlari kasallikni aniq tashxislashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida "**Buzoqlar dispepsiyasini profilaktika qilish va davolash bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari**" keltirilgan. Bu bobning birinchi bo'limi "Buzoqlar dispepsiyasini antenatal profilaktikasi"ga bag'ishlangan bo'lib, 8 oylik bo'g'oz sigirlarda Pastdarg'om tumani K.Eldor fermer xo'jaligida o'tkazilgan ikkinchi bosqich tajribalar natijalari asosida yozilgan.

Tajriba uchun 15 bosh sog'indan chiqarilgan sigirlar o'xshash juftliklar asosida uch guruhga ajratildi. Birinchi guruhda ratsiondagi 3 kg silos o'rniga 3 kg beda pichani va 2 kg o'stirilgan bug'doy maysasi qo'shildi; shuningdek, LPP-1 premiksi (9 g/100 kg) va Monokalsiyfosfat (11 g/100 kg) tana massasiga hisoblangan dozada omuxta yemga kiritildi. Ikkinchi guruhda ratsion tarkibini birinchi guruhdan farqi,

30 kun da-vomida Vetom 1.2 probiotigi (50 mg/kg) qo'llandi. Yangilangan ratsionning umumiy to'yimligi 91%ni tashkil etdi. Kalsiy-fosfor nisbati 2,14:1, qand-protein nisbati 0,84:1ni tashkil etdi. Nazorat guruhi sigirlari xo'jalik rasionida oziqlantirildi. Taj-ribalar 60 kun davomida olib borildi. Boshlanishida va har oyda klinik hamda gemato-logik tekshiruvlar o'tkazildi, yangi tug'ilgan buzoqlarda dispepsiya darajasi aniqlandi.

Tajriba boshida (8 oylik bo'g'ozlik) barcha guruh sigirlarining umumiy holati qoniqarli edi, biroq bo'g'ozlikning oshuvi bilan vitamin va mineral almashinuvini buzilishining simptomlari - anemiya, oxirgi dum umurtqalari so'rilishi, junlar to'kilishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi va teri qoplamasi yaltiroqligi pasayishi kuzatildi. Bo'g'ozlik oxirida nazorat guruhi sigirlarida lizuxaning kuchayishi, dum umurtqalarining so'rilishi va semizlik darajasining pasayishi aniqlandi. Barcha sigirlarda tana harorati me'yorda qoldi. Yurak urishining o'rtacha soni birinchi guruhda 75,5±4,6 dan 76,4±3,8 martagacha, ikkinchi guruhda 74,7±4,2 dan 72,2±3,8 martagacha, nazorat guruhida esa 75,6±2,8 dan 80,6±4,3 martagacha o'zgardi. Nafas olish soni birinchi guruhda 23,5±2,26 dan 24,8±1,04 martagacha oshdi; ikkinchi guruhda 25,6±1,13 dan 24,6±0,64 martagacha kamaydi; nazorat guruhida 24,6±0,45 dan 26,9±2,06 martagacha ortdi. Ruminasiya soni (2 daqiqada) birinchi guruhda 4,2±1,9 dan 4,0±1,8 martagacha, ikkinchi guruhda 4,1±1,6 dan 4,2±1,5 martagacha oshdi; nazorat guruhida esa 4,0±1,5 dan 3,2±1,49 martagacha kamaydi (1-jadval).

1-jadval

Tajribadagi sigirlar klinik ko'rsatkichlari. M±m, n-5

Guruhlar	Tekshirish vaqti	Tana harorat, °C	Nafas soni (1 min.)	Puls soni (1 min.)	Ruminasiya (2 min.)	Shilliq pardalar rangi
1 tajriba	A	38,4±0,06	23,5±2,26	75,5±4,6	4,2±1,9	oqargan
	B	39,4±0,04	24,8±1,04	76,4±3,8	4,0±1,8	och qizg'ish
2 tajriba	A	38,7±0,04	25,6±1,13	74,7±4,2	4,1±1,6	oqargan
	B	38,8±0,06	24,6±0,64	72,2±3,8	4,2±1,5	och qizg'ish
nazorat	A	38,5±0,04	24,6±0,45	75,6±2,8	4,0±1,5	oqargan
	B	39,2±0,02	26,9±2,06	80,6±4,3	3,2±1,49	kuchli darajada oqargan

Izoh: A- bo'g'ozlikning 8- oyi; B- bo'g'ozlikning 9- oyi;

Tajriba davomida bo'g'oz sigirlarning qon namunalari tekshirildi (2- jadval). Gemoglobin miqdori tajriba boshida birinchi guruhda 88,5±1,32 g/l, ikkinchi guruhda 88,6± 1,82 g/l, nazorat guruhida 89,6±1,36 g/l bo'lsa, oxirida mos ravishda 99,5±1,84 g/l, 102,6±1,46 g/l va 85,4±1,52 g/l darajasida o'zgarish kuzatildi. Gemoglobin kamayishi kamqonlik va ichki organ faoliyatining susayishiga olib keladi.

Glyukoza miqdori boshida birinchi guruhda 2,13±0,08 mmol/l, ikkinchi guruhda 2,12±0,06 mmol/l, nazorat guruhida 2,11±0,08 mmol/l bo'lib, oxirida birinchi guruhda 2,36±0,04 mmol/l, ikkinchi guruhda 2,86±0,05 mmol/lga oshdi, nazorat guruhida esa 1,98±0,16 mmol/lga kamaydi. Umumiy oqsil miqdori boshida birinchi guruhda 72,2±4,6 g/l, ikkinchi guruhda 70,8±4,5 g/l, nazorat guruhida

73,4±4,2 g/l bo'lib, oxirida birinchi guruhda 80,6±4,6 g/l, ikkinchi guruhda 82,2±4,2 g/l ga oshdi, nazorat guruhida esa 72,1±4,3 g/l ga kamaydi.

## 2-jadval

### Tajribadagi sigirlar qonining morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari. M±m, n-5

Guruhlar	Tekshirishlar vaqti	Gemoglobin g/l	Glyukoza mmol/l	Umumiy oqsil, g/l	Karotin, mg%	Ishqoriy fosfataza, mkmol.s/l.
1-tajriba	A	88,5±1,32	2,13±0,08	72,2±4,6	0,366±0,05	1,46±0,03
	B	99,5±1,84	2,36±0,04	80,6±4,6	0,388±0,09	1,38±0,02
2-tajriba	A	88,6±1,82	2,12±0,06	70,8±4,5	0,365±0,02	1,47±0,02
	B	102,6±1,46	2,86±0,05	82,2±4,2	0,408±0,05	1,26±0,05
nazorat	A	89,6±1,36	2,11±0,08	73,4±4,2	0,366±0,08	1,45±0,2
	B	85,4±1,52	1,98±0,16	72,1±4,3	0,364±0,08	1,68±0,2

(Izoh: A- bo'g'ozlikning 8- oyi; B- bo'g'ozlikning 9- oyi;)

Ishqoriy fosfataza (IF) fermenti faolligi boshida birinchi guruhda 1,46±0,03 mkmol·s/l, ikkinchi guruhda 1,47±0,02 mkmol·s/l, nazorat guruhida 1,45±0,2 mkmol·s/l bo'lib, oxirida birinchi guruhda 1,38±0,02 mkmol·s/l, ikkinchi guruhda 1,26±0,05 mkmol·s/l ga kamaydi; nazorat guruhida esa 1,68±0,2 mkmol·s/l ga oshdi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, ishqoriy fosfataza faolligining oshishi mineral moddalar almashinuvi buzilishi va suyak distrofiyasiga olib keladi, natijada osteodistrofiya rivojlanadi va kelajakda undan tug'ilgan buzoqda dispepsiya rivojlanishi kuzatiladi.

Tajribadagi bo'g'oz sigirlarning qon zardobidagi karotin miqdori boshida birinchi guruhda 0,366±0,05 mg%, ikkinchi guruhda 0,365±0,02 mg%, nazorat guruhida 0,366±0,08 mg% bo'lgan. Oxirida esa birinchi guruhda 0,388±0,09 mg%, ikkinchi guruhda 0,408±0,05 mg%, nazorat guruhida 0,364±0,08 mg% darajasida qayd etildi. Karotin kamayishi retinol yetishmovchiligiga olib kelib, embrional abortlar va homilaning yetarlicha rivojlanmasligiga sabab bo'ladi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning 1 boshida oddiy dispepsiya, nazorat guruhidan 3 boshida hayotining 2-3 kunlarida toksik dispepsiya kuzatildi. Ikkinchi tajriba guruhidagi buzoqlarda esa dispepsiya qayd etilmadi (3-jadval). Ikkinchi guruh sigirlarining ratsioniga 3 kg silos o'rni ga 3 kg beda pichasi, 2 kg o'stirilgan bug'doy maysasi berildi, shuningdek Vetom 1.2 probiotigi (50 mg/kg, 30 kun), LPP-1 premiksi (9 g/100 kg) va Monokalsiyfosfat (11 g/100 kg) granula shakldagi omuxta yemga qo'shib berildi. Natijalar ijobiy bo'lib, bunday oziqlantirish sigirlarda hayvonlarda hazmlanishni yaxshilab, ulardan tug'ilgan buzoqlarning sog'lomligi, faolligi va emish qobiliyatining yaxshilanishiga olib keldi. Buzoqlar tug'ilgandan bir soat ichida harakatlanib, emishni boshlashi va ularda dispepsiyaning kuzatilmaganligi xarakterli bo'ldi. Buzoqlarning o'rtacha tana vazni birinchi guruhda 32,5±2,1 kg, ikkinchi guruhda 36,6±2,5 kg, nazorat guruhida esa 28,7±1,96 kg ni tashkil etdi (6-jadval).

Tajriba natijalari bo'yicha: 10 kundan so'ng birinchi tajriba guruhidan tug'ilgan buzoqlarning o'rtacha tana vazni 38,45±1,5 kg, ikkinchi guruhda

43,16±1,9 kg, nazorat guruhida esa 33,84±1,8 kg tashkil etdi. Birinchi guruh buzoqlari nazorat guruhiga nisbatan 3,8 kg, ikkinchi guruh esa 7,9 kg og'irroq bo'ldi. Laktatsiyaning birinchi oyida sigirlarning sut mahsuldorligi tajriba guruhida o'rtacha 15,85 kg, nazorat guruhida 12,84 kg ni tashkil etdi.

### 3-jadval.

#### Tajribadagi bo'g'oz sigirlardan tug'ilgan buzoqlar tana vazni va dispepsiya bilan kasallanish darajasi

Ko'rsatkichlar		1-tajriba	2-tajriba	3-nazorat
Tana vazni (kg)	tug'ilgan kundagi	32,5±2,1	36,6±2,5	28,7±1,96
	10 kunlikda	38,45	43,16	33,84
Dispepsiya kuzatilishi (bosh)		1	0	3

Bundan tashqari, yangi tuqqan sigirlarda uviz suti kimyoviy tarkibi o'rganilib, uning sifat ko'rsatkichlari ratsion va saqlash sharoitlariga bog'liqligi aniqlandi. Uviz sutida neyrofil leykotsitlar va epitelial hujayralar mavjud bo'lib, ular yangi tug'ilgan buzoqlarni patogenlardan himoya qiladi.

Sigirlar tuqqandan keyin uviz sutining fizik-kimyoviy xususiyatlari I va 2-tajriba hamda nazorat guruhlarida o'rganildi (4- jadval). Uviz sutining kislotaligi I soatdan keyin 1-tajriba guruhida 38,6±3,2°T, 2-tajriba guruhida 39,0±2,8°T, nazorat guruhida 32,0±3,1°T ni tashkil qildi va 48 soat ichida pasayib, mos ravishda 24,2±2,2°T; 24,6±2,4°T va 24,0±2,6°T ga tushdi. Kislotalik pasayishi umumiy oqsil miqdorining kamayishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Uviz sutidagi umumiy oqsil miqdori 1 soatdan keyin 21,4-22,2% atrofida bo'lib, 48 soat ichida 4,1-4,4%gacha pasaydi.

### 4-jadval

#### Sigirlar uviz sutining kimyoviy tarkibi (n=10)

Guruhlar	Tarkibi %					Kislotalik °T	Zichligi °A	Vitamin A mkg/ml	
	Quruq modda	Umumiy oqsil	Yog'	Laktoza	Kul				
I tajriba	A	31,6±3,2	22,2±1,9	6,2±0,8	2,2±0,4	1,0±0,2	38,6±3,0	41,4±3,8	3,8±0,8
	B	14,2±2,0	5,4±1,1	4,2±0,6	3,8±0,6	0,9±0,1	25,6±2,8	30,0±3,2	3,6±0,7
	C	14,0±2,1	4,2±0,8	3,7±0,6	4,0±6,6	1,0±0,1	24,2±2,2	30,0±2,8	3,2±0,5
II tajriba	A	31,8±3,0	22,2±1,8	6,3±0,9	2,1±0,3	0,9±0,1	39,0±2,8	41,8±3,6	3,9±0,7
	B	14,6±1,8	5,5±1,0	4,2±0,7	3,9±0,4	0,9±0,1	25,8±2,6	30,2±3,2	3,7±0,7
	C	14,2±2,0	4,4±0,7	3,8±0,6	4,0±0,4	1,0±0,2	24,6±2,4	30,0±3,2	3,4±0,5
II nazorat	A	29,4±2,8	21,4±2,0	5,8±1,0	2,0±0,3	0,8±0,1	32,0±3,1	38,2±3,4	2,8±0,4
	B	13,8±1,9	5,0±0,9	3,8±0,7	3,6±0,4	0,9±0,1	24,8±2,8	29,4±2,6	2,4±0,5
	C	13,8±1,9	4,1±0,7	3,5±0,7	3,9±0,3	0,8±0,09	24,0±2,6	29,0±2,8	2,2±0,4
Me'yor	23-30	22-24	4-6	2-3	1-2	41-50	42-44	3-7	

Izoh: A-birinchi uviz suti; B- 24 soatdan keyin; C- 48 soatdan keyin;


Uviz sutida immunoglobulinlar, albuminlar va globulinlar ko'p, leykotsitlar va fermentlar mavjud, ammo laktoza miqdori laktatsiyaning birinchi kunida kam bo'lib, 48 soatga kelib 1,8-1,9 barobar oshadi. Laktoza miqdori 1 soatdan keyin 2,0-

2,2%, 48 soatda esa 3,9-4,0% ni tashkil etdi. Yog' miqdori esa 1 soatda 5,8-6,3%, 48 soatda 3,5-4,0% darajasida o'zgardi. Uvuz sutining zichligi mineral moddalarga (P, Ca, Mg) bog'liq bo'lib, tuqqandan keyingi 1 soatda 38,2-41,8<sup>o</sup>A, 48 soatdan keyin 29,0-30,0<sup>o</sup>A darajasida aniqlandi. Quruq modda miqdori 24 va 48 soatdan keyin 2 barobar kamaydi. Vitamin A miqdori 1 soatda 2,8-3,9 mkg/ml, 48 soatda esa 2,2-3,4 mkg/ml atrofida bo'lib, to'la qiymatli ratsionda boqilgan sigirlarda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotda sigirlardan tug'ilgan buzoqlarga tug'ilgandan so'ng 50-60 daqiqa ichida uviz suti berildi, chunki erta uviz sutini iste'mol qilish dispepsiyani oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Uviz sutidagi sut kislotasi hazm kanalida chirituvchi mikrofloraning ko'payishini to'xtatadi. 2-3 soatdan kech berilgan uviz suti esa buzoqlarda dispepsiyaga olib keladi, bu kasallikning davosi qimmatda tushadi va o'lim holatlari 35-40% ga yetadi.

Uvuz sutidagi immunoglobulinlar ichak shilliq qavatida 24-36 soat ichida so'riladi, so'ngra oshqozon-ichak fermentlari ta'sirida parchalanadi. Eng yuqori o'zlashtirish birinchi 3 soat ichida yuz beradi. Dispepsiyaning asosiy sababi oshqozon-ichak tizimining epitelial qoplamasining rivojlanmaganligi, natijada uviz sutining to'liq hazm bo'lmasligi va mikroblar tomonidan tvorog laxtalariga aylanishidir. Bu esa disbakterioz, toksinlar ta'sirida intoksikatsiya, diareya, suvsizlanish va gemodinamika buzilishlariga olib keladi.

